

## O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

**Rasuljonova Durdona Zokirjon qizi,**

*Qo‘qon universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi*

*3-kurs 2-21-guruh talabasi.*

[rasuljonovadurdona91@gmail.com](mailto:rasuljonovadurdona91@gmail.com)

*Tel: (+998948372429)*

### Anotatsiya

Ushbu tezisdagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 4k modeli hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha ba‘zi bir maslahatlar va metodik usullar keltirib o‘tilgan. Bu tezis orqali tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning samarali ekanligi haqida fikrlar keltirilib, yechimlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy fikrlash, metod, 4 k modeli, ko‘nikma.

Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida sifatli ta‘limni amalga oshirish uchun zamonaviy dars o‘tish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. O‘quvchilarni ta‘lim texnologiyalari va axborot texnologiyalari orqali ta‘limga jalb etish va qiziqtirish amalga oshirilmoqda. Ta‘limga bunday yondashuvlar boalarga XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga yaqindan yordam beradi. Shu ma‘noda o‘quvchilarning tahlil va mushohadalariga tayangan holda tanqidiy hamda ijodiy fikrlashi, atrofidagi insonlar bilan sog‘lom hamkorlik hamda moslashuvchan bo‘lishi talab etiladi. Bunda bizga keng tatbiq etilayotgan “4K modeli“ yaqindan yordam beradi.

“4K modeli” o‘zi nima? 4K modeli o‘z ichiga to‘rtta yo‘nalishni olgan bo‘lib, ular :

1. Tanqidiy fikrlash.
2. Kreativ fikrlash.
3. Muloqot qilish.
4. Jamoada ishlash kabi ko‘nikmalardan iborat hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash – muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘z pozitsiyasini egallash va uni asoslash qobiliyatini, suhbatdoshni tinglash, dalillarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish va ularning mantig‘ini tahlil qilish qobiliyatini ta‘minlaydigan fikrlash; nafaqat axborotni o‘zlashtirish, balki uni tanqidiy baholash, tushunish va qabul qilish qobiliyati. Bu nima qilish va nimaga ishonish haqida qiyin qarorlar qabul qilish uchun aqlli, muvozanatli yondashuv. Tanqidiy fikrlash ma‘lum miqdordagi ishonchsizlikni, umume‘tirof etilgan haqiqatlarga shubhani o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash – bu qiziquvchanlik va tadqiqot usullaridan foydalanish. Pedagogika va psixologiyaning vazifasi mustaqil fikrlaydigan va harakat qila oladigan shunday shaxsni tarbiyalashdan

iborat bo‘lib, bu shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini nazarda tutadi. Pedagogik avtoritarizmdan voz kechish, sodir bo‘layotgan voqealarni baholashda bir tomonlamalik ta‘lim tizimida turli xil ilmiy izlanishlarni talab qilib, ular orasida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muammosi muhim o‘rin tutadi

“Hozirgi kunda esa bu ta‘lim jarayonida nimaga qo‘llanishi kerak?” degan savol ko‘pchilikni ya‘ni o‘qituvchilar va bo‘lg‘usi yosh pedagoglarni hamda, shu bilan bir qatorda ota-onalarni ham o‘ylanitirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash jarayonida o‘quvchining vaziyatni tahlil qilish va baholab ketish ko‘nikmalari shakllanishiga yordam beradi. Biror bir vaziyat borasida mulohaza yuritish, mavjud muammoga turli nuqtai nazardan baho berish qobiliyatini shakllantirishda tanqidiy fikrlashning o‘rni katta hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta‘lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomondan, faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Biroq, bunga erishish uchun maktablarda tanqidiy fikrlashni yaxshilashlari uchun o‘quv dasturlari ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarga tayangan holda integratsiya qilinishi kerak. O‘qituvchilar, psixologlar va faylasuflar bu borada bir fikrda bo‘lishsa ham tanqidiy fikrlashning ahamiyati, konsepsiyasi nimani anglatishi haqida hali ham kelishuv mavjud emas va o‘qituvchilarni amaliyotda qo‘llash uchun qanday tayyorlanishi kerakligi haqida bahs muzokaralar olib borilmoqda.

Ushbu ko‘nikmalar ta‘lim jarayoniga to‘liq kirib ulgurmagan bo‘lsa-da, ba‘zi bir maktablarda amalda qo‘llanib kelinmoqda. Aniqki, maktabgacha yoshdagi bolalar savol berishni yaxshi ko‘rishadi. Bu qiziqishdan dalolat beradi, bora-bora u aqlning qiziquvchanligiga, keyinchalik o‘z navbatida tanqidiy fikrlashga aylanadi. Ko‘p hollarda maktab hayoti boshlanishi bilanoq, savollar berilishi to‘xtaydi. Faqat javoblar yangraydi. Ammo bu holatda bolalar faqat yangi bilimlarning iste‘molchisiga aylanishadi, ammo ular **bilimlarning yaratuvchisiga** aylanishi kerak.

Ota-onalarga savol: siz bolalaringizga savollar berasizmi? Bu ishni qilish juda muhim, chunki bolalar, avvalo, oilada, ota-onadan yoki aka-uka va opa-singillardan va faqat keyin maktabda savol berishni o‘rganadilar.

Bizga ijodiy fikrlash qiziqarli narsalarni yaratish, san‘at, ijoddek tuyuladi. Aslida esa **har bir inson, bola ijodiy fikrlashni rivojlantirishi kerak, chunki bu bog‘liqlik mavjud bo‘lmagan joylarda uni topishning qimmatli qobiliyatidir.** Shuningdek, bu ko‘nikma bir vaziyat uchun ko‘plab javob variantlarini o‘ylab topish qobiliyatini va qayta o‘rganish, ishongan narsangizdan voz kechish va yangi narsalarni topish, o‘rganish qobiliyatini shakllantiradi.

Shunchaki bilimning o‘zi hech kimga kerak emas, chunki ham bilim, ham ko‘nikmaga ega bo‘lgan odamlar bor va kelajakda bolalarimiz aynan shunday odamlar bilan

raqobatlashadilar. Ham bilim berilishini, ham ko‘nikma va qadriyatlarni rivojlantirishni ta‘minlash muhimdir. Shunday ekan, buni quyida berilgan matn asosida 4 K modeli (tanqidiy fikrlash)ni qo‘llashni amalda ko‘rib chiqamiz.

Bir kuni Olim maktabdan qaytayotib, yo‘ldagi do‘kondan 2-3ta konfet oldi va ularning har birini yeb bo‘lgandan so‘ng, qog‘ozlarini yerga uloqtirib keta boshladi. Maktab joylashgan bu yo‘lakni har kuni katta yoshli ayollar supurib chiroyli qilib qo‘yishardi. Lekin hozir Olim yo‘lga tashlagan konfet qog‘ozlaridan va boshqa Olimga o‘xshagan insonlar tashlab ketgan turli chiqindilar tufayli bu yo‘lak juda ham xunuk holatga kelib qolgan edi.

1. Bolajonlar, ushbu kichik hikoyada Olim to‘g‘ri ish qildimi?
2. Nimaga uning ishini xato deb o‘ylaysiz?
3. Uning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?
4. Bu yerda Olim vatanimiz obod bo‘lishiga hissa qo‘shyaptimi?
5. Olim vatanimiz obod bo‘lishi uchun nimalar qilishi kerak?

2-sinf O‘qish savodxonligi darsligining III qismida berilgan “Bolari bilan pashsha” masalidan parcha:

...Ari bu so‘zlarga javoban shunday dedi:

-Oh, do‘stim! Sening bunday turmushing o‘z boshingdan beri kelmasin. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo‘ladimi? Insonlar seni dasturxondan quvib haydaydi. Oxiri bir o‘rgimchak luqmasi bo‘lishdan boshqa narsaga yaramaysan. Ammo men tayyorlagan mum hamma yerni yoritadi. Bolim dunyoning hamma yerida maqbuldir. Shu sababli insonlar meni o‘zlari tarbiya qiladilar. Har yerda meni maqtaydilar. Qo‘y, birodar, mening ishim ko‘p. Sen bilan behuda so‘zlashib turishga vaqtim yo‘q.

- 1 Ari bu yerda to‘g‘ri ish qildimi?
2. Pashshaga aytgan gaplari to‘grimidi, pashshani rostan ham foydasi tegmaydimi insonlarga?
3. Arining o‘rnida bo‘lganingizda pashshaga qanday maslahat bergan bo‘lar edingiz?

Mana shu tartibda asar bo‘yicha savollar berib o‘tiladi. Bunda ham asar tahlili, ham unda ko‘tarilgan masalalarni real hayotga bog‘lash orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish mumkin.

Shu tarzda o‘quvchilarga darslikdagi matnlar yuzasidan, yoki bolalar yoshiga mos tarzda berilgan turi keyslar orqali, yoki turli savollar yordamida vaziyat yaratib, bolaning tanqidiy fikrlashini shakllantirishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, bunday keys yoki savollar bilan murojaat qilinganda o‘quvchilar ushbu vaziyatga fikr bildirishni va o‘z qarashlarini aytib o‘tishga harakat qilishadi. Bu esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday usullarning sinfda, dars jarayonida qo‘llash orqali bolalar o‘z fikriga ega bo‘lishni va har qanday vaziyatda ham o‘z g‘oyalarini



o‘ziga xos ishonch bilan aytish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qisqa qilib aytganda bilimlari bo‘yicha raqobatchiga aylana oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
2. Xushbaqova Zarnigor Javliyevna, & Odiljon Parpiyev. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 645–650. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.667>
3. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy\\_fikrlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash)
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-talimda-tanqidiy-fikrlash-boyicha-oqituvchilarning-tasavvurlari/viewer>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/16/creative-thinking/>
7. <https://jdpu.uz/tanqidiy-fikrlashni-shakllantirish-texnologiyasi/>
8. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. III qism (51-bet). U.B. Aydarova . –Toshkent “Novda Edutainment”, 2023-80b.